

PAPER

TALABALARGA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNALOGIYALAR ORQALI FONETIKANI O'RGATISH

Tursunova Kamola^{1,*}

¹Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

* Kamola@umail.uz

Abstract

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularni fanetik kompetensiyaga ta'siri haqidagi bilimlar bayon qilingan.

Key words: Fonetika, uslubiyot, nutq, rivojlanish, dars, interfaol metod, raqamli texnologiya, kompetensiya.

Asosiy qism

Pedagog innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali va sifatli tashkil etishdan iborat. Ta'lim berishda turfa xil usullar ya'ni metodlar mavjud. O'qituvchi qay uslubda dars bermasin maqsadiga yetish imkonini izlaydi, bu borada, ta'lim metodlari va innovatsion metodlardan foydalanadi.

Ta'lim metodlari shu vaqtga qadar o'zining samarasini ko'rsatib kelmoqda va zamon muallimlari yangicha uslubda dars o'tib yanada yaxshi natijalar olishga intilmoqdalar. Respublikamizda olib borilayotgan keng ko'lamlı iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalaridagi islohotlarning asosiy maqsadi yurtimizda yashayotgan fuqarolar uchun munosib turmush tarzini shakllantirishdir.

Ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim tizimini jahon andozalari darajasida yuksaltirish, milliy istiqlol g'oyasini o'zida mujassam etgan yangi avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va malakali kadrlar tayyorlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining samarasini oshiradi, o'quvchilarning erkin fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilim olishga ishtiyoqi va zavqini oshiradi, bilimlarini mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda mustaqil foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Yoshlarning o'z iqtidor va iste'dodini namoyish etishiga keng imkoniyat yaratish, rag'batlantirish ularning yetuk va raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishiga zamin hozirlaydi.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg'or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi. Ta'lim muassasasi ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llab o'qitish jarayonida yuqori samaradolikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir dars mashg'ulotini didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqdir.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli ta'lim oluvchilar faollashtirilgan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini ortirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning ta'lim mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarishga undan talab etiladi. Barkamol avlodga ta'lim – tarbiya berish va malakali kadrlarni tayyorlash ko'p jihatdan o'qituvchi – pedagogga bog'liq.

Malakali pedagog yuksak kasbiy mahorat, bilim – ko'nikmalar, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalana oladigan, ta'lim texnologiyalarini o'quv mashg'ulotlarida maqsadli

qo'llaydigan, o'quv mashg'ulotining mazmuniga, sifatiga javob beradigan ma'sul shaxsdir. Ta'lim oluvchilarni faollashtiradigan metodlar bilan o'quv mashg'ulotlarni boyitish ularda o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi.

Buning uchun dars jarayonining oqilona tashkil qilinishini, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchining qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonidagi faolligini muttasil rag'batlantirib borishi talab qilinadi. Pedagogik tajribalarni takomillashtirishda ilmiy pedagogik ma'lumotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim beruvchi pedagogik faoliyatida tajribalar to'playdi, tahlil qiladi va ular asosida xulosalar chiqaradi. U shu xulosalardan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish orqali hozirgi zamon pedagogi uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallaydi.

Pedagogik jarayonda ta'lim beruvchi o'zining yangi g'oyalarini rivojlantirish va takomillashtirishi pedagogning iqtidoriga, malakasiga bog'liq. Pedagogik izlanish ta'lim berish jarayonida doimo ma'lum yo'nalishdagi sub'ektga nisbatan aniqlashtirilgan bo'ladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyada bilim oluvchilarning bilimlarini o'z vaqtida nazorat qilish va baholash muhim ahamiyatga ega. Ta'lim beruvchilar mazmunli va sifatli ta'lim jarayonini tashkil qilishlarida axborot manbalaridan ya'ni Axborot kommunikatsion texnologiyalar (AKT) imkoniyatlaridan, Axborot- resurs markazlari (ARM) elektron o'quv bazalaridan, mahaliy va xorijiy o'quv, uslubiy va ilmiy adabiyotlardan keng foydalana olishlari muhimdir. Ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish, talabalarning mustaqil ravishda o'quv materiallarini o'zlashtirishi, ularning kasbiy o'sishini rag'batlantirish, ularda ijodiy faollikni tarbiyalash ko'p jihatdan ta'lim beruvchiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek ulardan yuqori darajadagi tayyorgarlik, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish, belgilangan vazifalarni bajarish uchun ko'p ma'lumotlar orasidan kerakligini tanlab olish va bu ma'lumotlarni qayta ishlay olish talab qilinadi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli ta'lim oluvchilar faollashtirilgan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning ta'lim mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarishga undan talab etiladi. Barkamol avlodga ta'lim – tarbiya berish va malakali kadrlarni tayyorlash ko'p jihatdan o'qituvchi – pedagogga bog'liq. Malakali pedagog yuksak kasbiy mahorat, bilim – ko'nikmalar, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalana oladigan, ta'lim texnologiyalarini o'quv mashg'ulotlarida maqsadli qo'llaydigan, o'quv mashg'ulotining mazmuniga, sifatiga javob beradigan ma'sul shaxsdir.

Ta'lim oluvchilarni faollashtiradigan metodlar bilan o'quv mashg'ulotlarni boyitish ularda o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayonining oqilona tashkil qilinishini, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchining qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonidagi faolligini muttasil rag'batlantirib borishi talab qilinadi. Pedagogik tajribalarni takomillashtirishda ilmiy pedagogik ma'lumotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim beruvchi pedagogik faoliyatida tajribalar to'playdi, tahlil qiladi va ular asosida xulosalar chiqaradi. U shu xulosalardan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish orqali hozirgi zamon pedagogi uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallaydi.

Pedagogik jarayonda ta'lim beruvchi o'zining yangi g'oyalarini rivojlantirish va takomillashtirishi pedagogning iqtidoriga, malakasiga bog'liq. Pedagogik izlanish ta'lim berish jarayonida doimo ma'lum yo'nalishdagi sub'ektga nisbatan aniqlashtirilgan bo'ladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyada bilim oluvchilarning bilimlarini o'z vaqtida nazorat qilish

va baholash muhim ahamiyatga ega. Ta'lim beruvchilar mazmunli va sifatli ta'lim jarayonini tashkil qilishlarida axborot manbalaridan ya'ni Axborot kommunikatsion texnologiyalar (AKT) imkoniyatlaridan, Axborot- resurs markazlari (ARM) elektron o'quv bazalaridan, mahaliy va xorijiy o'quv, uslubiy va ilmiy adabiyotlardan keng foydalana olishlari muhimdir.

Ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish, talabalarning mustaqil ravishda o'quv materiallarini o'zlashtirishi, ularning kasbiy o'sishini rag'batlantirish, ularda ijodiy faollikni tarbiyalash ko'p jihatdan ta'lim beruvchiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek ulardan yuqori darajadagi tayyorgarlik, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish, belgilangan vazifalarni bajarish uchun ko'p ma'lumotlar orasidan kerakligini tanlab olish va bu ma'lumotlarni qayta ishlay olish talab qilinadi.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda va ko'zlangan maqsadlarga erishishda media vositalaridan ya'ni internet, televideniya, video, kino, telefon va boshqa aloqa vositalaridan foydalanish o'zining natijalarini ko'rsatmoqda. Media- lotincha media so'zidan olingan bo'lib, vosita, vositachi yoki ommaviy axborot vositalari – degan ma'noni bildiradi. Ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarga ta'lim yo'nalishlarida media ta'lim vositalaridan foydalanib ma'ruzalar, amaliy va dual ta'limni amalga oshirgan holda amaliy mashg'ulotlarini tashkilotlarda tashkil qilishda yaxshi samara beradi. Ayniqsa bosma media vositalari hisoblangan barcha turdagi bosma nashrlardan foydalanish talabalarning nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rishlari hamda mustaqil ishlarini mazmunan talab darajasida tayyorlashlariga ijobiy tomonidan ta'sirini ko'rsatadi.

Ilmiy, ommabob jurnallarda axborotlarni tanlashda asosiy vositalardan biri bo'lib qoladi. Davriy jurnallarda ma'lumotlar batafsil va chuqurroq taxlil qilishga imkoniyat beradi. Zamonaviy darsning maqsadi jahon pedagogikasida e'tirof etilgan qoidalar asosida talabalarni tashqaridan kuzatiladigan xatti – xarakatlarini anglatuvchi fe'llar bilan ifodalinishi kerak. Shu bilan birga dars maqsadlari inson faoliyatining kongnitiv (nazariy bilimlarni egallash), affektiv (his-tuyg'ular, ijobiy munosabatlarni shakllantirish) va psixomotor (muayyan xatti-xarakatlarni uddalash) sohalari bo'yicha ham aniq belgilanishi lozim. Neyrolingvistik pedagogikada esa, o'quv maqsadlarini aniq o'lchash va erishish mumkinligi, haqiqiy (real) hamda vaqt bo'yicha me'yorlashtirilgan bo'lishini tavsiya etadi.

Dars maqsadlarining yuqoridagi talablarga muvofiq belgilanishi, uni pedagogik texnologik qoidalari bo'yicha amalga oshirishning negizi bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy dars interfaol trening shaklida o'tkazilishi va mantiqiy jihatdan tashkiliy (tayyorlov), chaqiruv (da'vat), anglash, mulohaza va uyga vazifa berishdagi bosqich (faza) laridan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tashkiliy bosqichda odatdagi jarayonlardan tashqari kichik guruhlarini shakllantirish, aqliy yoki harakatli o'yinlar o'tkazish, dars maqsadlarini muhokama qilish, lozim topilsa uni talabalar taklifini e'tiborga olgan holda takomillashtirish hamda yakdillik bilan qabul qilinishiga erishish, yangi materialni o'rganishga oid o'quv mativlarini shakllantirish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, zamonaviy darsda o'qituvchi – hukmron, axborot beruvchi yagona manbaa emas, balki K.Rojers (AQSh) ta'kidlaganidek fasilitator, ya'ni talabalarni mustaqil o'qib – o'rganishlarini osonlashtiruvchi, ularga qulay sharoit yaratuvchi bo'lishi lozim.

Ta'lim–tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim–tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim–tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan, va hozirda

pedagogika, psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega bo'lgan keng ko'lamlı serqirra tushunchadir. Pedagogik texnologiyada ishlab chiqarish sohalaridagi turli texnologiyalardan farqli ravishda ishlov beriladigan material o'quvchi (ta'lim oluvchi)ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatlari bo'lib, ularga o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida har turli ta'sirlar o'tkaziladi.

XX dastlab asrning o'rtalarida AQSHda paydo bo'lib, 1940-50 yillar o'rtasigacha 'Ta'lim texnologiyasi' deb yuritilib kelgan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o'qitishga nisbatan qo'llanilgan. 50-60 yillarda programmalashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan, 70- yillarda «pedagogik texnologiya» iborasi qo'llanilib u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini bildirgan. 1979-yilda AQSHning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan Pedagogik texnologiyani kompleks, integrativ jarayon deb asoslangan va 80- yillarning boshidan esa pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan. Hozirda bu tushunchaga quyidagi turli ta'riflar berilgan: Texnologiya - biror ishda, san'atda, mahoratda qo'llaniladigan usullar, yollar yigindisi. (Izohli lug'at).

Texnologiya – ishlov berish, ahvolni o'zgartirish san'ati, mahorati, qobiliyati metodlar yig'indisi. (V.M.Shepel).

Pedagogik texnologiya – Bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayondir. (N.Saydaxmedov).

Pedagogik texnologiya – o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T.Lixachev).

Pedagogik texnologiya – texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi. (YUNESKO).

Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari hozirgi an'anaviy ta'limni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda rivojlanib bormoqda. Turli fan o'qituvchilari tomonidan har bir o'quv fanining asosiy xususiyati, mazmunining tarkibi, amaliy, nazariy qismlarining nisbatiga muvofiq ravishda eng qulay pedagogik texnologiyalarning empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ adaptiv, inklyuziv va boshqa yo'nalishlarini to'g'ri tanlash jiddiy ahamiyatga ega.

References

1. Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal № 3 (100), chast 1 "Novosti obrazovaniya: issledovaniye v XXI veke" oktyabr, 2022 g
2. <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>
3. B. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim - oftobim (1 -sinf uchunsinf dan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi 1999.
4. A. Gulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. — T, „O'qituvchi 1992.
5. Journal of Innovation, Creativity and Art (ISSN: 2181-4287) Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi